

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING AMALIY AHAMIYATI

Norboyev Sardor Qavmiddinovich

BuxDPI Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Naimov Murodbek Nosir o'g'li

BuxDPI talabasi

Tel: +998934599828

Elektron pochta: murodbeknaimov7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola asosan, prokuratura organlari va ularning respublikadagi faolivati, tutgan o'rni va ahamiyatiga bag'ishlangan Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlariga berilgan imkoniyatlarining tahlili va jarayonlariga asoslangan.

Kalit so'zlar: Prokuratura organlari huquqni muhofaza qilish, qonunlar ustidan nazorat. prokuratura akademiyasi.

Аннотация: Данная статья в основном посвящена прокуратуре и ее деятельности в республике их роли и значению. В настоящее время он основан на анализе и обработке возможностей, предоставленных Прокуратуре Республики Узбекистан

Ключевые слова: Органы прокуратуры, правоохранительные органы, контроль над законами, академия Прокуратуры.

Annotation: This article is mainly devoted to the prosecutor's office and its activities in the republic, their role and significance, Currently, it is based on the opportunities. Provided to the Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan

Key words: Prosecutor's Office, law enforcement, control over laws, Prosecutor's Academy

“Prokuratura (lotincha: procurare - g'amxo'rlilik qilish) - ayrim mamlakatlarda jinoiy ishlarni qo'zg'atish, ayblovni yoqlash. Sud protsesida davlat manfaatlarini himoya qilish vakolatlari yuklatilgan maxsus davlat organi sifatida kiritilgan. Prokuratura dastlab XIII-XIV asrlarda Fransiya hududida yuzaga kelgan. Ayrim davrlarda Prokuraturaga barcha fuqarolar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning qonunlarini aniq va bir xilda bajarishi ustidan nazorat qilish vazifasi ham kiradi. Muayyan mamlakatlarda Prokuratura sudning tarkibiy qismi hisoblanadi”¹. xususan O'zbekistonni shu davlatlar sirasiga kiritsak boladi.

Prokuratura boshqa bir davlatlarda faqatgina tashkiliy ishlar bilan shug'ullanish bilan cheklanadi xolos. Prokuratura organlari vagona markazlashgan tizim sifatida O'zbekistonda faoliyat kursatadi. Ularning rahbari Bosh Prokuror Prokuratura organing tashkil etish jarayoni: Prokuratura organlarini tashkil etish jarayoni Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'nivevich Karimov tashabbuslari bilan 1992-yilning 8-yanvardagi PF-313-son asosida Ittifoq qarmog'idagi O'zbekiston SSR prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga aylantirish tartibida tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlari tashkil etish va ularning faolivat yuritish tartibi, shuningdek vakolat doiralari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida (143-146 modda) aks ettirilgan. Prokuratura organlarini tashkil etgandan so'ng endi ular uchun kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish o'z oldiga maqsad qilib qo'yildi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yilning 24 yanvarida «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil Masalalari to'g'risida»gi 33-son qarori qabul qilindi va “unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzurida Qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi tashkil etildi. Ushbu Markazga prokuratura organlari xodimlarining malakasini oshirishdan tashqari ilmiy faoliyat olib borish ham belgilangan, “² shu sababli O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 1994-yil 20 dekabrda 869-son buyrug'iga asosan Qonunchilik

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 33-son 24.01.1992

mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlarining malakasini oshirish Markazning Ilmiy kengashi tuzilgan.

O'tgan yillar davomida Respublikasimizda amalga oshirilgan o'zgarish va islohotlar Bu Markazning faoliyatini takomillashtirishni taqozo etgan va shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yilning 7-noyabrdagi PQ-727-son Qaroriga ko'ra. Markaz negizida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari tashkil etildi. Prokuratura organlarining asosiy maqsad va mohiyati: Prokuratura organlarining faoliyati qonun stavorligini har tomonlama qaror toptirish va huquq tartibotni mustahkamlashga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan inson va ijtimoiy tizimlarini, milliy g'urur va huquqiy tizimlarning huquqlarini g'ayriqonuniy tajoovuzlardan muhofaza qilishga qaratilgan. "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga buysunuvchi prokurorlar o'z yo'nalishlarini quyidagicha olib borishadi:

-Inson va fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, shaxsiy huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazorat choralari olib borishdir.

-Barcha idoralar, korxonalar, tashkilot, muassasalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat.

-Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi idoralarning qonunlarni ijro etishlarini nazorat qilish va ularning qonunlarni qo'llashga doir faoliyatini muvofiqlashtirish

-Sudlarda jinoiy ishlar ko'rib chiqilishida davlat ayblovi qo'llab-quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini qarab chiqishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

-Soliq intizomini mustahkamlashga soliq valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat;

-ushlanganlarni saqlash, dastlabki qamoq, sud tayinlangan jazo va majburiy xarakterdagi boshqa choralarni o'tish joylarida qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish;

-Qurolli Kuchlar qonunlarga rioya etishini nazorat qilish;

-jinoyatchilarga nisbatan dastlabki tergov ishlarini amalgam oshirish;

-qonunchilikni takomillashtirish va qonunlarni targ'ib qilishda hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ishtirok etish"³.

Prokuratura organlari qonuniylik hamda jinoyatchilikning ahvoli, asosiy yo'nalishlari to'g'risida, bosharuv idrolari tomonidan qonunlarga rioya etilishini ta'minlash, davlat va jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish borasidagi vazifalar qanday bajarilayotganligidan, tegishli bo'lishiga qarab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining oily idoralari, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatlarini, Xalq deputatlar mahalliy Kengashlarini, hokimlarni xabardor etadilar. Ular fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish to'g'risidagi, shuningdek, davlat siri hamda qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirni saqlash haqidagi qonun talablariga zid kelmaydigan darajada oshkora ish ko'radilar.

Bosh prokuror va prokurorlarning vakolatlari: O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari quyi pog'onadagi prokurorlar yuqori pog'onadagi prokurorlarga bo'ysunish tartibida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori boshchiligidagi yagona markazlashgan tizimni tashkil etadilar. Ular nazoratni va o'z vakolatlarni davlat hokimiyati hamda boshqaruv mahalliy idoralaridan, mansabdor shaxslardan, jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilib turgan qonunlarga, xalqaro va davlatlararo shartnomalarga qat'iy rioya etib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'sungan holda amalga oshiradilar.

³ Xusanov O.T "Konstitutsiyaviy huquq" T.: "Ilm ziyo", 2006, 246-252-betlar

Bosh prokuror va uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga muvofiq, Oliy Majlis tasdig'idan o'tganidan keyin lavozimlariga tayinlanadilar va ozod qilinadilar.

“Qoraqalpog'iston Respublikasi Prokurori O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasining oily vakillik organi tomonidan tayinlanadi. Viloyatlarning prokurorlari, tuman va shahar prokurorlari O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, Qoraqalpog'iston Respublikasining Prokurorining, viloyat, tuman va shahar prokurorlarining vakolat muddati - besh yil”⁴.

Prokuratura organlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nazoratida bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlarining tizimi O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlar, tumanlararo va boshqa hududiy prokuraturalardan iborat. Unga, shuningdek, transport, harbiy, tabiat muhofazasi prokuraturalari va boshqa ixtisoslashtirilgan prokuraturalar ham kiradi.

Prokurorlarning daxlsizligi qanday?

Prokuraturaning qonunlar ijro etishini nazorat qilish, arizalar va xabarlarini tekshirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish borasidagi faoliyatiga davlat hokimiyati va boshqa idoralar, jamoat tashkilot, ommaviy axborot vositalarining hamda ularning vakillarining shuningdek, mansabdor shaxslarning aralashishi taqiqlanadi.

Prokurorning g'ayriqonuniy qaror qabul qilishga erishish yoxud o'z faoliyatini amalgam oshirishga to'sinlik qilish maqsadida unga qanday shaklda bo'lmasin biron-bir ta'sir ko'rsatganlik uchun qonunda belgilab qo'yilgan tartibda javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.

Prokuraturadagi o'zgarishlar!

“O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi (yangi tahrirdagi) qonunning 18 moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashishi departamenti tashkil etildi. Departamentga lavozimiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning o'rinbosariga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan Department boshlig'i rahbarlik qiladi. Departament hamda uning joylardagi bo'limlarini tashkil etish bo'linmalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tarkibi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi”⁵.

O'zbekiston Respublikasi ichki qo'shinlari va FVV bo'linmalari harbiy prokuraturasini tashkil etish va uning ish tartibi “Prokuratura to'g'risida”gi qonun, boshqa qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining harbiy prokuraturasi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi. Jumladan, 1993-yil 7-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining harbiy prokuraturasi to'g'risidagi nizomga ko'ra, harbiy prokuratura “Prokuratura to'g'risida”gi qonunda o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajara turib, o'z faoliyatini Qurolli Kuchlar, chegara va ichki qo'shinlarda, qorovul qo'shinlarida, shuningdek FVV bo'linmalarida qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga qaratiladi. U quyidagilarni muhofaza qiladi;

Harbiy xizmatchilar va yig'inlarga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar, ularning oila a'zolari va Qurolli Kuchlar ichki qo'shinlar va FVV bo'linmalari xizmatchilarining shuningdek, boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini;

Prokuratura organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha ishlar: Organning faoliyatini muvofiqlashtirish deganda, ushbu organlarning harakatlarini maqsad, vaqt, ijrochilar hamda harakat dasturi bo'yicha kelishib olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, muvofiqlashtirish kadrlar va vositalarni bosh yo'nalish bo'yicha yo'naltirishdir. Bu har bir organ o'z vakolati doirasida

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 144-modda

⁵ O'zbekiston Respublikasi “Prokuratura to'g'risidagi” 2001 yil 29 avgust 257-II-son qonuni

qo'ngan maqsadga yetishish uchun boshqa organlar bilan kelishilgan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish usullari va me'todlaridan foydalanib harakat qiladi deganidir.

Bunda ishlab chiqilgan dastur va jinoyatchilikka qarshi kurashning kelishilgan tadbirlar rejasi bo'yicha harakat qilinadi. Shundagina jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida ijobiy narsalarga erishish mumkin.

Muvofiqlashtirish shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida qonniylikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Chunki, u organning holatini, ehtimol tutilgan huquqbuzarliklarga qay tarzda aks ta'sir ko'rsatishi haqida to'la axborot beradi.

Prokuraturaning muvofiqlashtiruvchi rolining bosh vazifasi - mamlakatimizda jinoyatchilikni pasaytirishda, uni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishda yordam berishdir. Shahar, tuman, viloyat, respublikada esa huquqni muhofaza qilish organlarining kelishilgan harakatlariga, jinoyatlar sonini kamaytirish shuningdek, ma'muriy hududda va transportda qonuniylikni mustahkamlashga ko'maklashishdir.

Muvofiqlashtirishning yana biri Huquqni muhofazalovchi organlarning birlashib, hamda tarmoqligiga barham berish. Bu vazifa "Prokuratura to'g'risida"gi qonundan kelib chiqilib aytilgan. Keyingi yo'li bu huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini takrorlashni bartaraf etish va shu faoliyatini konkretlashtirishdir.

Huquqni muhofaza qilish organlarining kelishilgan faoliyati o'zaro aloqada bo'lgan bir necha qismlar va komponentlardan tashkil topgan. Ular quyidagilar: mazmun, tashkil etish va protsedura. Ular hardoiim yaxlit bir narsani tashkil qiladi. Muvofiqlashtirish faoliyatining mazmuni uni o'z faoliyatni u yoki bu protsedura doirasida amalga oshiradi.

Aslida qonunchilikni mustahkamlash faoliyatini muvofiqlashtirish bir necha bosqichga ega va turli organlar tomondan tashkil etiladi. Bunday muvofiqlashtirishning eng yuqori keng miqyosli bosqichi Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida amalga oshiriladi.

Huquqni Muhofaza qilish akademiyasi:

"Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi Prezident farmoni (PF-257-son, 28.11.2022-y) qabul qilindi.

"Farmonga ko'ra Bosh prokuratura akademiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Huquqni Muhofaza qilish akademiyasi tashkil etilib, unda jinoyatlarni tergov qilish sohasida kadrlarni amaliyot bilan uzviy bog'liqligini ta'minlagan holda yagona yondashuv asosida tayyorlashga qaratilgan uzluksiz o'quv tizimi yo'lga qo'yiladi.

Toshkent davlat yuridik universitetining ixtisoslashtirilgan filiali tugatilib, uning shtat birliklari, o'quv va moddiy-texnik bazasi Akademiyaga o'tkaziladi.

Akademiya Bosh prokuratura tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi, yuridik shaxs maqomiga ega, ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Jinoyatlarni tergov qilish sohasida mutaxasislarni chuqurlashtirish maqsadli bazaviy tayyorlash va ularning malakasini oshirish Akademiya faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

2023/2024 o'quv yilidan Akademiyada tergov faoliyati va huquqni muhofaza qilish faoliyatining boshqa sohalarida bakalavriat (3 yil) va magistratura (1 yil) bo'yicha o'quv jarayoni tashkil etiladi"⁶.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 33-son 24.01.1992
3. Xusanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Ilm Ziyo, 2006, 246-252-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 144-modda.

⁶ "O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida oliy ta'limga qabul qilish va o'qitish tartibini belgilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining (06.04.2023 143-son)



5. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi 29.08.2001 257-son qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bakalavriatiga o'qishga qabul qilish va o'qitishni tashkil etish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 6 apreldagi 143-son qarori.

Worldlyknowledge.uz